


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

TARIX KAFEDRASI



“USTRUSHONA BUYUK IPAK YO'LI CHORHASIDA”

FAN DASTURI

Bilim sohasi: 200 000 - San'at va gumanitar fanlar –
Ta'lim sohasi: 220 000 - Gumanitar fanlar –
Ta'lim yo'nalishi: - 60220300- Tarix (mamlakatlar va yo'nalishlar bo'yicha)

Guliston – 2021 y.

Mazkur fan dasturi "Tarix" kafedrasining 2021 yil "_26_" _08_ dagi yig'ilishida muhokama qilinib, tasdiqlash uchun tavsiya etilgan. (_1_-sonli bayonnoma)

Mazkur fan dasturi "Ijtimoiy iqtisodiy" fakulteti Kengashining 2021 yil "_27_" _08_ dagi yig'ilishida muhokama qilinib, tasdiqlash uchun tavsiya etilgan. (_1_-sonli bayonnoma)

Mazkur fan dasturi Guliston davlat universiteti Kengashining 2021 yil "_28_" _08_ dagi _1_-sonli bayonnoma bilan tasdiqlangan.

Tuzuvchi

B. To'ychiboyev – GulDU, "Tarix" kafedراسи dotsenti

| | | | | |
|--------------------------|--|--|------------------------------|---------------------------|
| Fan/moduli UBIYCH2704 | O`quv yili 2024-2025 | Semester 7 | ECTS – Kreditlar 4 | |
| Fan/modul turi Tanlov | Talim tili O`zbek | | Haftadagi dars soatlari 4 | |
| 1 | Fanning nomi | Auditoriya mashg`ulotlari (soat) | Mustaqil ta`lim (soat) | Jami yuklama (soat) |
| | Ustrushona Buyuk Ipak yo`li chorohasida | 60 | 60 | 120 |
| 2 | <p>Fanning mazmuni</p> <p>Yurtboshimiz tomonidan hayotga tatbiq etilgan 2017-2021 yillarda O`zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo`nalishi bo`yicha Harakatlar strategiyasi asosida amalga oshirilayotgan ishlar esa ijtimoiy-iqtisodiy yuksalishni yangi bosqichga olib chiqqanini ko`rib turibmiz. Ayniqsa, aholining turmush darajasini yaxshilash maqsadida yangi ish o`rinlari tashkil etish, ishlab chiqarish hamda tadbirkorlik sub`ektlari faoliyatini yanada rivojlantirish, gaz, elektr energiya, toza ichimlik suvi, yo`l qurilishi, tibbiyot sohalarida olib borilayotgan islohotlar tufayli fuqarolarning bugunidan mamnun, kelajakka ishonchi mustahkam bo`lib umrguzaronlik qilishga, shu yurt, shu vatan taraqqiyotiga hissa qo`shishga undayotgani quvonarli hol. Xorij davlatlari ekspertlari ham mamlakatimizda bo`lib, bunday ijobiy o`zgarishlarni e`tirof etayotgani har bir vatandoshimiz qalbiga faxru iftixor bag`ishlamoqda.</p> <p>Ushbu o`quv dasturi bakalavriat mutaxassislik yo`nalishlari talabalari uchun tanlov faniga mo`ljallangan bo`lib, Ustrushona tarixining eng qadimgi davri, qadimgi davr, o`rta asrlar va xonliklar davrlari tarixida Ustrushona tarixining o`ziga xos jihatlari yoritilgan. Unda Markaziy Osiyo xalqlari tarixida Ustrushona tarixining tutgan o`rni, ahamiyati masalalari, moddiy, yozma manbalar va arxiv hujjatlaridagi ma'lumotlarga asoslangan holda ta`limni tashkil qilish ilgari surilgan. Shuningdek, Markaziy Osiyo sivilizatsiyasining shakllanishi va bosqichma-bosqich rivojlanib borishida mintaqaviy va transmintaqaviy iqtisodiy-madaniy aloqalar tizimi faoliyati yetakchi o`rin egallaydi hamda jamiyat va insoniyat rivoji, tarixiy taraqqiyot bosqichlarini tahlil etishga, davlatchilik tarixi va uning rivojlanishi hamda taraqqiyot bosqichlari, O`zbekistonning tarixiy taraqqiyoti bosqichlarining xususiyatlarini yoritib beruvchi masalalarni qamrab olgan.</p> <p>Fanning maqsadi: Ustrushona Buyuk Ipak yo`li chorohasida fanining maqsadi bo`lajak tarix fani o`qituvchilariga qadimdan sharq va g`arbni bir-</p> | | | |

biri bilan bog'lab turgan buyuk ipak yo'li markazida joylashgan, turli xil madaniyatlar kesishgan, o'ziga xos etnomuloqot hududi bo'lgan Ustrushona tarixi aholisining an'anaviy madaniyatining o'ziga xos jihatlarini, hududda qadimdan istiqomat qilib kelayotgan urug'larning joylashuvini, an'anaviy xo'jaligini keng ilmiy materiallar asosida yetkazish va ayniqsa vohaning tarixini yoritib berishdan iborat.

Fanning vazifalari:

- "Ta'lim to'g'risida"gi qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturida aks etgan vazifalarni amalga oshirish;
- Didaktika nazariyasi bilan ta'lim amaliyoti aloqasini ta'minlash;
- talabalarga ta'lim - tarbiya jarayonida vatanga sadoqat, ajdodlar qoldirgan boy madaniy merosga hurmat hissini uyg'otish;
- noan'anaviy dars shakllaridan biri bo'lgan ekskursiya darslarini yuqori savida o'tkaza olishni o'rgatish;
- Bugungi kundagi o'lkaning qadim tarixini o'rganish to'g'risida ma'lumot berish;
- Talabalarga o'zlari yashab turgan hududlaridagi aholi tomonidan muqaddas deb bilgan qadamjo va yodgorliklar tarixini ilmiy nuqtai-nazardan tahlil qila olish ko'nikmalarini shakllantirish;
- o'lka aholisining qadim tarixi to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plashni urgatish;
- talabalarga axborotchilar va dala tadqiqotlaridan ma'lumotlar to'plash malakalarini shakllantirishdan iborat.

Fanni o'zlashtirishga qo'yiladigan talablar.

- I. Ustrushona Buyuk Ipak yo'li chorohasida fani O'zbekiston tarixi va arxeologiyasining ajralmas qismi ekanligi, uning asosiy davrlari va taraqqiyotning tadrijiy bosqichlari to'g'risida, ularning uzviy bog'liqligi va davomiyligi, tarixiy voqealarning vorisiyligi va qonuniyligi haqida tasavvurga ega bo'lishini;
- II. Fanning predmeti, nazariy-metodologik asoslarini, manbalarini, O'zbekiston tarixi va arxeologiyasining ajralmas qismi ekanligini;
- III. O'zbekiston insoniyat sivilizatsiyasining qadimiy o'choqlaridan biri ekanligini. hozirgi Sirdaryo va Jizzax vohasi hududi(Ustrushona)da istiqomat qilib kelayotgan xalqlarning o'ziga xos rivojlanish tarixi, xo'jalik an'analari mavjudligini;
- IV. Yurtimizdagi islomgacha bo'lgan diniy tasavvur va e'tiqodlar bilan bog'liq bo'lgan urf-odat va marosimlarni tasniflay olishni;
- V. Aholi tomonidan o'tkazilayotgan marosimlar orqali hudud tarixi haqida

tushunchalarga ega bo'lishni;

VI. Vohaning qadim tarixi haqida aniq tasavvurga ega bo'lishni;

VII. Boshqa hududlar bilan voha aholisi orasida saqlanib qolgan xalq og'zaki ijodi bilan taqqoslay olish ko'nikmalariga ega bo'lishlari talab etiladi.

Fanning boshqa fanlar bilan bog'liqligi.

Ustrushona Buyuk Ipak yo'li chorohasida fani O'zbekiston tarixi, etnologiya, arxeologiya, O'rta Osiyo shaharsozlik tarixi, dinshunoslik, madaniyatshunoslik, tarixiy o'lkashunoslik va turizm va boshqa bir qancha ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan uzviy bog'liq.

1.1. Fanni o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar.

Talabalarning Ustrushona Buyuk Ipak yo'li chorohasida fanini o'zlashtirishlari uchun o'qitishning ilg'or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi informasion - pedagogik texnologiyalarni tadbiq qilish muhim ahamiyatga egadir. Fanni o'zlashtirishda darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, ma'ruza matnlari, tarqatma materiallar, elektron materiallar, virtual stendlardan hamda o'quv xaritalaridan foydalaniladi. Ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishda ularga mos ravishdagi ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalaniladi.

1.2. Fanning ishlab chiqarishdagi o'rni. Ilmiy tadqiqot muassasalarida, laboratoriyalarda kichik ilmiy xodim va yordamchi lavozimlarda ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishi; umumiy va o'rta maxsus, kasbiy ta'lim (shuningdek, akademiy liseylar, o'rta umum ta'lim maktablarida) darslari beruvchi. SHuning uchun o'quv yurtlarida tarix va jamiyatshunoslik fanlari o'qituvchilari sifatida o'qituvchi va uslubiyat ishlari bo'yicha mas'ul vazifalarni bajarishi; muzey lektori va ekskursavodlar sifatida lektorlik, ekskursiya ishlarida; vazirliklarning o'quv ilmiy bilimlari, tarmoq institutlari, oliy ta'lim muassasalari, o'rta maxsus ta'limida ishlash kabi kasbiy faoliyat turlarini bajarishi va tarix fanlaridan dars berishi mumkin

II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

1-Mavzu: Kirish: Kurs mavzusining maqsad va vazifalari

Ustrushona tarixi va arxeologiyasi fanining predmeti, maqsad va vazifalari. Ustrushonaning o'rganilish tarixi. Ustrushonani tadqiq etishni davrlarga bolib o'rganish masalasi: a) iotykyap. b) muammolar. v) vazifalar

2-Mavzu: Ustrushonaning paleolit davri tarixi

Ustrushona paleolit va mezolit davrida. Ustrushonada eng qadimgi tosh asri

manzilgohlari, Urug' jamoasi va diniy e'tiqodning shaqllanishi

3-Mavzu: Ustrushonaning ibtidoiy jamoa tuzumi tarixi (neolit, eneolit, bronza).

Ustrushonaning neolit va eneolit davri manzilgohlari. Ustrushonaning bronza davri manzilgohlari. Ustrushonaning qadimgi davri qoyatosh sur'atlari va diniy etiqodlari.

4-Mavzu: Ustrushonada ilk o'troq dehqon va chorvadorlar madaniyati. Ustrushonaning arxaik davri tarixi (ilk temir davri)

Ustrushona aholisining oila va oilaviy turmush an'analari. Aholining diniy marosimlari va urf-odatlari. Ustrushona aholisining xo'jalik faoliyati bilan bog'liq urf-odat va marosimlari. Xalq og'zaki ijodi, xalq o'yinlari, marosim va bayramlari. Ustrushonaning dastlabki o'troq dehqonchilik madaniyati (Nurtepa, Xontepa misolida). Ustrushonaning arxaik davri tarixini o'rganilishi masalalari.

5-Mavzu: Ustrushonaning antik davr tarixi:

1) yozma manbalar sharhi va siyosiy tarix; 2) Arxeologik tadqiqotlar.

Ustrushonaning antik davr tarixining o'ziga xosligi. Ustrushonaning antik davr tarixini o'rganishda yozma manbalarning ahamiyati. Ustrushonaning antik davr tarixini o'rganishda arxeologik tadqiqotlar.

6-Mavzu: Ustrushonaning ilk o'rta asr davri tarixi (VI-VIII asrlar):

1) Yozma manbalar sharhi; 2) Arxeologik tadqiqotlar.

Ustrushonaning ilk o'rta asr davri tarixi tushunchasi. Ustrushonaning ilk o'rta asr davri tarixini o'rganishda yozma manbalarning ahamiyati. Ustrushonaning ilk o'rta asr davri tarixini o'rganishda davrlarga bo'linishi/ ilk o'rta asrlarda Ustrushona aholisi o'troqlashish jarayonining o'sishi natijasida qishloq makonlarining ko'payishi.

7-Mavzu: Ustrushona Arab xalifaligi tarkibida.

Ustrushonada Arablar istilosi oldidan ijtimoiy-siyosiy hayot. Arablar tomonidan Ustrushonaning istilo qilinishi. Arablarga qarshi xalq qo'zg'olonlari.

8-Mavzu: Ustrushonaning shahar va qishloq madaniyati tarixi

Ustrushonaning qishloq madaniyati tarixi to'g'risida tushuncha. Qishloq turar joylarida aholining tabaqalashishi natijasida "dehqonlar" nufuzining oshishi. Qishloq turar joylarining toifalarga bo'linishi. Ustrushonaning shahar madaniyati tarixi to'g'risida tushuncha. VII-VIII asrlarda Ustrushonadagi shaharlar. Ustrushonadagi shaharlarning boshqaruv shakli. Shahar yodgorliklarga ekskursiya marshrutlarini ishlab chiqish.

9-Mavzu: Ustrushona Buyuk Ipak yo'lida.

Buyuk Ipak yo'lining Markaziy Osiyodagi ahamiyati. Ustrushonaning Buyuk Ipak yo'lida tutgan o'ni. Ustrushonadan o'tgan savdo yo'llari. Vohadagi ekoturizm obyektlari.

10-Mavzu: Ustrushonada karvon savdosiga yaratilgan sharoitlar haqida.

Ustrushonada karvon savdosiga yaratilgan sharoitlar haqida. Ustrushonaning shaharlari va karvonsaroylarida savdo karvonlariga munosabat. To'rtko'tepa karvonsaroyining o'rganilishi.

11-Mavzu: Ustushona tohiriylar va samoniylar boshqaruvi davrida.

Ustushona rivojlangan o'rta asrlarda. Ustushona tohiriylar boshqaruvi davrida

Ustushona samoniylar boshqaruvi davrida. O'quvchilar o'lkashunoslik ekskursiyalarini tashkil etishning tashkiliy huquqiy asoslari

12-Mavzu: Ustushona Mug'ullar istilosi arafasida.

Ustushona hududi Mug'ullar istilosi arafasida. Ustushona hududida mo'g'ul istilochilariga qarshi xalq qo'zg'olonlari. O'quvchilar o'lkashunoslik ekskursiyalarini tashkil etishning tashkiliy huquqiy asoslari

13-Mavzu: Ustushona Amir Temur va temuriylar davrida.

Ustushona Amir Temur va temuriylar davrida. Bobur mirzoning "Boburnoma" asarida Ustrushonaga berilgan tasnif. O'quvchilar o'lkashunoslik ekskursiyalarini tashkil etishning tashkiliy huquqiy asoslari. Maktablarda ekskursiya marshrutlarini ishlab chiqish

14-Mavzu: Ustrushona Shayboniylar davrida.

Ustrushona hududi Shayboniylar davrida. O'lkashunoslik obyektlari va ularni tasniflash. O'quvchilar o'lkashunoslik ekskursiyalarini tashkil etishning tashkiliy huquqiy asoslari.

15-Mavzu: Ustrushonada kechgan etnogenetik jarayonlar tarixi.

Ustrushonada kechgan etnogenetik jarayonlar tarixi to'g'risida tushuncha. Ustrushona hududida qadimgi davrda kechgan etnogenetik jarayonlar

III. Seminar mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Seminar mashg'ulotlarida talabalar Ustrushona Buyuk Ipak yo'li corohasida fanidan ma'ruza darslarida olgan nazariy bilimlarini mustahkamlash bilan birga, seminarlar mavzulari bo'yicha tayyorgarlik ko'rish jarayonida qo'shimcha adabiyotlar va tarixiy manbalar bilan tanishish orqali qo'shimcha bilim va xulosalar chiqarish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Natijada ularning bilim doiralari ilmiy jihatdan asoslangan holda kengayadi.

Seminar mashg'ulotlari mavzulari:

- 1-mavzu. Ustrushonaning poleolit davri tarixi va arxeologiyasining o'rganilishi
- 2-mavzu. Ustrushonaning ibtidoiy jamoa tuzumi tarixi (neolit, eneolit, bronza)
- 3-mavzu. Ustrushonada ilk o'troq dehqon va chorvadorlar madaniyati
- 4-mavzu. Ustrushonaning ilk temir davri tarixi va arxeologiyasi
- 5-mavzu. Ustrushonaning antik davr tarixi yozma: manbalar sharhi va siyosiy tarix. Ustrushonaning antik davr arxeologiyasining o'rganilishi
- 6-mavzu. Ustrushona chorvador xalqlari ijtimoiy hayoti va madaniyati
- 7-mavzu. Ustrushonaning ilk o'rta asr yozma manbalar sharhi, qishloq makonlarining o'rganilish tarixi
- 8-mavzu. Ustrushona Arab xalifaligi tarkibida
- 9-mavzu. Ustrushonaning shahar madaniyati tarixi
- 10-mavzu. Ustrushona Buyuk Ipak yo'lida
- 11-mavzu. Ustrushonada karvon savdosiga yaratilgan sharoitlar haqida
- 12-mavzu. Ustrushona tohiriylar va samoniylar boshqaruvi davrida
- 13-mavzu. Ustrushona Mug'ullar istilosi arafasida
- 14-mavzu. Ustrushona Amir Temur va temuriylar davrida. Ustrushona Shayboniylar davrida
- 15-mavzu. Ustrushonada kechgan etnogenetik jarayonlar tarixi

Izoh: Ishchi fan dasturini shakllantirish jarayonida ishchi o'quv rejada mazkur mashg'ulot turiga ajratilgan soat hajmiga mos ishlar tanlab bajariladi.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar.

Talaba mustaqil ishni tayyorlashda fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- ✓ darslik va o'quv qo'llanmalari bo'yicha fan boblari va mavzularni o'rganish;
- ✓ tarqatma materiallari bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;
- ✓ maxsus adabiyotlar bo'yicha fanlar bo'limlari bo'yicha yoki mavzulari ustida ishlash.
- ✓ talabalarning o'quv-ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fanlar bo'limlari va mavzularini chuqur o'rganish;
- faol va muammoli o'qitish uslublaridan foydalanidigan o'quv mashg'ulotlari.

1-topshiriq. Ustrushonaning ilk temir davriga oid Nurtepa yodgorligi

- 2-topshiriq. Kiropol Ustrushonaning antik davriga oid shaharlaridan biri sifatida
- 3-topshiriq. Gaza - Ustrushonaning antik davriga oid shaharlaridan biri sifatida
- 4-topshiriq. Baga - Ustrushonaning antik davriga oid shaharlaridan biri sifatida
- 5-topshiriq. Ustrushona chorvadorlarining o'troqlashuv jarayoni
- 6-topshiriq. Xontepa shahar yodgorligi
- 7-topshiriq. Bunjikat shahar yodgorligi
- 8-topshiriq. Qaliyatepa shahar yodgorligi
- 9-topshiriq. Munchoqtepa shahar yodgorligi
- 10-topshiriq. Qo'rg'ontepa (Zomin) shahar yodgorligi
- 11-topshiriq. Ustrushonaning ilk o'rta asr qishloq makonlarining toifalarga bo'linishi
- 12-topshiriq. O'rtaqo'rg'on qishloq makoni (Tojikiston)
- 13-topshiriq. Tirmizaktepa qishloq makoni (Tojikiston)
- 14-topshiriq. Chilhujra qishloq makoni (Tojikiston)
- 15-topshiriq. Toshtemirtepa qishloq makoni (Tojikiston)
- 16-topshiriq. Qalayi-Sar qishloq makoni (Tojikiston)
- 17-topshiriq. Do'ngchatepa qishloq makoni (Tojikiston)
- 18-topshiriq. Qing'irtepa qishloq makoni (G'allaorol)
- 19-topshiriq. Almantepa I,II. qishloq makoni (G'allaorol)
- 20-topshiriq. Pardaqultepa qishloq makoni (Jizzax)
- 21-topshiriq. Komilbobotepa qishloq makoni (Jizzax)
- 22-topshiriq. Yoqubbobotepa qishloq makoni (Jizzax)
- 23-topshiriq. Ustrushonaning ilk o'rta asr qishloq makonlarining arxeologik joylashuvi
- 24-topshiriq. Ustrushonaning ilk o'rta asr qishloq makonlarining madaniy hayoti
- 25-topshiriq. Ustrushona arab muarixlari talqinida
- 26-topshiriq. Mo'g'illar istilosi davrida Ustrushona
- 27-topshiriq. Kultepa va o'rta asrlardagi Sabat
- 28-topshiriq. Miq qal'asi
- 29-topshiriq. Ustrushona Buyuk Ipak yo'lida
- 30-topshiriq. To'rtko'ltepa karvonsaroyining o'rganilishi
- 31-topshiriq. Ustrushona Amir Temur va temuriylar davrida
- 32-topshiriq. "Boburnoma"da Ustrushona talqini
- 33-topshiriq. Sirdaryo va Jizzax viloyati hududlarida chorvachilik turlari shakllanishining o'ziga xos xususiyatlari

| | |
|---|--|
| | <p>34-topshiriq. Sirdaryo va Jizzax vohasida dehqonchilik xo'jaligi turlari</p> <p>35-topshiriq. Voha aholisining uy-joylari va ularning turlari</p> <p>36-topshiriq. Aholining an'anaviy kiyimlari va bezaklari</p> <p>37-topshiriq. Sirdaryo va Jizzax vohasi aholisining an'anaviy taomlari</p> <p>38-topshiriq. Sirdaryo va Jizzax vohasi voha aholisining bola tug'ilishi bilan bog'liq urf-odatlar</p> <p>39-topshiriq. Aholining oila va nikoh bilan bog'liq marosimlari</p> <p>40-topshiriq. Sirdaryo va Jizzax vohasi aholisining aza va dafn marosimlari</p> <p>41-topshiriq. Sirdaryo va Jizzax vohasi aholisining qadimiy diniy e'tiqodlar bilan bog'liq urf-odatlar</p> <p>42-topshiriq. Aholining islom dini bilan bog'liq marosimlari va rasm rusmlari</p> <p>43-topshiriq. Aholining vohaga xos aytishuvlari, afsonalari, naqlari va rivoyatlari</p> <p>44-topshiriq. Sirdaryo va Jizzax vohasi vohasi ekoturizm obyektlari. Gastronomik turizmni rivojlantirish imkoniyatlari</p> <p>45-topshiriq. Sirdaryo va Jizzax vohasi aholisining an'naviy o'yinlari. tabiat yodgorliklari va tarixiy obyektlar. muzeylar fondlarida saqlanayotgan noyob eksponentlar</p> |
| 3 | <p>VI. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetentsiyalar)</p> <p>Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:</p> <ul style="list-style-type: none"> • Zamonaviy jarayonlarda "Ustrushona Buyuk Ipak yo'li chorohasida" fanining jahon tarixida tutgan o'rni; tarixiylik va xolislik nuqtai nazaridan "Ustrushona Buyuk Ipak yo'li chorohasida" fani muammolarning ishlab chiqilishi jarayonlarini <i>bilishi</i> kerak; • "Ustrushona Buyuk Ipak yo'li chorohasida" fanining dolzarb muammolarini o'rganish va metodologiyasini ishlab chiqishda milliy g'oyaning ahamiyati; tarixiy atamalarning paydo bo'lishida turli davrlaridagi tarixiy jarayonlarning ta'siri haqida; Ustrushona Buyuk Ipak yo'li chorohasida fanining mustaqil fan sifatida rivojlanishi; bu fanning ijtimoiy tafakkur mahsuli ekanligi, ijtimoiy fanlar rivojida toponimika fanining muhim voqealar bilan bog'liqligini bilish <i>ko'nikmalariga ega bo'lishi</i> kerak. <p>Vatan tarixini bilish; ma'naviy-milliy va umuminsoniy masalalar bo'yicha o'z qarashlarini ilmiy asoslashni va ifodalashni bilishi, milliy mustaqillik g'oyalari amal qiladigan faol hayotiy dunyoqarashga ega bo'lishi; bakalavriyat yo'nalishiga mutanosib ravishda raqobatbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo'lishi; yangi bilimlarni mustaqil egallay olishi, o'z</p> |

| | |
|----|--|
| | <p>faoliyatini ilmiy asosda tashkil etishi va o'zini kamolotga etkazish ustida ishlay bilishi; ta'lim yo'nalishi bo'yicha oliy ma'lumotli shaxslarga tegishli lavozimlarning bo'sh o'rinlarida mustaqil ishlay olish tajribasiga ega bo'lishi; bakalavriatning tegishli yo'nalishi doirasida tanlangan ixtisoslik bo'yicha magistratura oliy ta'limini davom ettirish <i>malakalariga ega bo'lishi</i> kerak.</p> |
| 4 | <p>VII. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • seminarlar (mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni qilish; • individual loyihalar; • jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar |
| 5. | <p>VIII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.</p> |
| 6 | <p>Asosiy adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Шавкат Мирзиёев. Сахро бағрида мўъжизалар яратаётган эл (Сирдарё вилояти сайловчилар вакиллари билан учрашувдаги нутқ). “Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халкимиз билан бирга қурамыз”. Тошкент. “Ўзбекистон”, 2017. 2. Грицина А.А. Археологические исследования в Северной Уструшане. // Т.: 1988. с.33-35 3. Кудратов С. Сардобалар ўлкаси. – Т.: Фан. 2001. 4. Омонжулов Т., Мирзаева Н. Мирзачўлнинг ўтмиш тарихи. Гулистон. 2011. 5. Мирзаева Н. Мирзачўлнинг ўтмиш тарихи. Тошкент. 2016. 6. Пардаев М, Тўйчибоев Б. Уструшона қадимда ва илк ўрта асрларда. Тошкент. 2017. 7. Ходжиев М., Кудратов С., Самалов Б. Сирдарё тарихи. Гулистон . 2020 8. О'лка моддий маданияти тарихи. (o'quv qo'llanma). Guliston 2020. <p>Qo'shimcha adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Негматов Н.Н. Историко-географический очерк Уструшаны с древнейших времен по X в.н.е. // МИА №37 Москва-Ленинград, 1953. 2. Қадимий Жиззах воҳаси - Марказий Осиё цивилизацияси тизимида |

- (сиёсий, иқт-й, маданий ҳаёт). Конференция материаллари. Внешинвестром нашриёти. Тошкент-2019
3. Қадимий Зомин. Қўлланма. Мухаррир. Тошкент-2018
 4. М.Х. Пардаев, Ж.И. Гофуров. Уструшонанинг илк ўрта аср кишлоқ маконлари (ёзма ва археология манбалари асосида). Тошкент – 2016.
 5. М.Х.Пардаев., Б.Б.Тўйчибаев. Уструшона қадимда ва илк ўрта асрларда. Тошкент-2017.
 6. М.Пардаев. Шимолий-ғарбий Уструшона илк ўрта асрларда. (Қуйи Сангзор воҳаси материаллари асосида). Тарих фанлари номзоди илмий даражаси учун тайёрланган диссертация. Самарқанд -1995. –Б 9.
 7. М.Жураев. Ўзбек мавсумий маросим фольклори (ўқув қўлланма). Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси «Фан» нашриёти. Тошкент 2008
 8. Набиев А., ва бошқ. Ўзбекистон тарихини ўқитишда этнографик материаллардан фойдаланиш этномаданий жараёнлар. Самарқанд 2008
 9. Акчаев Ф. Жиззах воҳаси зиёратгоҳлари. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори илмий даражасини олиш учун тайёрлаган диссертацияси. Тошкент, 2020.
 - 10.Караматов Х. Ўзбекистонда мозий эътиқодлари тарихи. – Т., 2008
 - 11.Ҳайдаров Ҳ. Жиззах тарихидан лавҳалар. Тўплам. Мехнат нашриёти. Тошкент-1992
 - 12.Ҳ.Ҳайдаров. Жиззах вилояти тарихи. «Мехнат» нашриёти. Тошкент – 1996
 - 13.Ф.Тошбоев. Уструшона чорвадорларининг антик давр маданияти. Фалсафа доктори илмий даражасини олиш учун тақдим этилган дисс. Самарқанд – 2017.
 - 14.Ф.Тошбоев. Уструшона халқларининг антик даврдаги сиёсий ҳаёти. Тошкент – 2019.
 - Ф.Тошбоев. Уструшонанинг қадимги даврдаги этногенетик жараёнлар. Тошкент – 2019.
 - Гофуров Ж. И. Раннесредневековые сельские поселения Северной Уструшаны (на примере крепости Мик) // “Наука и Мир”. Международный научный журнал, № 7 (59), - Волгоград, 2018.

Аxborot manbaalari

[www. Bank referatov.ru](http://www.Bank referatov.ru)
www. akademik.ru
www. history.ru
www. literatura.ru

| | |
|----|--|
| | www.kutubxona.uz |
| 7. | Fan dasturi Guliston davlat universitetining 2021 yil 28 avgustdagi 1 - sonli Kengash qarori bilan ma'qullangan hamda tasdiqlashga rozilik berilgan. |
| 8. | Fan/modul uchun mas'ullar: B. To'ychiboyev – GulDU, "Tarix" kafedrası dotsenti |
| 9. | Taqrizchi: Toshboyev F – JDPI "Tarix o'qitish metodikasi" kafedrası mudiri, dotsent. |

